

YOSHLARNI IJTIMOIIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH ZARURIYATI

Elnura Pardayeva Abdusamad qizi

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
4-kurs talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqola yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayonida, ijtimoiy-madaniy tajribani o'zlashtirishi va jamiyatda o'zini o'zi anglashi uchun sharoit yaratishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyatga bo'lajak o'qituvchini tayyorlashning dolzarb jihatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy muammolar, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash, ijtimoiy-pedagogik ish, ijtimoiy-pedagogik faoliyat, bo'lajak o'qituvchi, o'z-o'zini rivojlantirish

Oliy ta'limda zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish va rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi [1]. Ushbu konsepsiyada talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni amaliy kasb egasi sifatida tayyorlash ishlarini tashkil qilish va tizimli ravishda olib borishni amalga oshirish mexanizmi sifatida ta'kidlab o'tildi.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat pedagogika oliy o'quv yurtlarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish vositasi hisoblanadi. Turli darajadagi ko'plab nazariy va eksperimental tadqiqotlarga qaramay, shuni ta'kidlash kerakki, ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mohiyati pedagogika fanida yetarli darajada o'rganilmagan va tahlil qilinmagan. Talabalarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatini amalga oshirishga tayyorligini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar yechimini kutmoqda. Shu bois, ta'lim muassasalarida yosh mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish yo'llari belgilab olinishi zaruriyatini taqozo qiladi.

Oliy o'quv yurtlari mutaxassislar tayyorlash sifatini yanada yaxshilashi, uni adekvat bo'lishini ta'minlashi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Zamonaviy ijtimoiy jamiyat oliy o'quv yurtlari oldiga quyidagi vazifalarni qo'ymoqda: ijtimoiy muammolarni ko'ra oladigan va ularni oqilona

ychimlarini topa oladigan; ijtimoiy yo‘nalishlarning o‘zgarishi munosabati bilan o‘z faoliyatining mazmuni va yo‘nalishlarini moslashuvchan tarzda qayta qura oladigan; zarur bilimlarni mustaqil egallay oladigan va amaliyotda qo‘llay oladigan o‘qituvchilarni tayyorlash vazifasini qo‘ymoqda [3].

Aniqlangan muammolar nuqtai nazaridan, bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash, bilimlarni uzatish texnologiyalarini o‘zlashtirishdan va ushbu bilimlar yordamida bo‘lajak mutaxassisning shaxsini rivojlantirish texnologiyalarini o‘zlashtirish va kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan sifatlarni rivojlantirishga o‘tishni nazarda tutadi. Islohotni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun: pedagogika universitetlarida ta’limning barcha bosqichlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash shakllari va usullarini o‘zgartirish va takomillashtirish talab qilinadi.

Universitetda bo‘lajak o‘qituvchining ijtimoiy-pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorgarligi sifati muammosining dolzarbligi bir qator qarama-qarshiliklar mavjudligi bilan bog‘liq: jamiyatning o‘qituvchi-professionalga bo‘lgan talablarining ortishi va universitetda kasbiy tayyorgarlikning yangi ijtimoiy sharoitlarga yetarlicha tayyor emasligi o‘rtasida; ta’lim muassasalaridagi ijtimoiy-pedagogik faoliyatga amaliy talab va o‘qituvchilarning uni amalga oshirish salohiyatining yetarli emasligi o‘rtasida; bo‘lajak o‘qituvchini ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash zarurati bilan oliy ta’limda ushbu jarayonni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatdan yetarli darajada rivojlanmaganligi o‘rtasida.

Zamonaviy maktab mehnatkash, axloqli, tashabbuskor, o‘zgaruvchan turmush sharoitlariga tez moslasha oladigan, faoliyat sohasini mustaqil tanlay oladigan, kasbiy va shaxsiy o‘z-o‘zini rivojlantira oladigan mutaxassislarni tayyorlashga qodir o‘qituvchiga juda muhtoj. Ta’kidlaganimizdek, ularning aksariyati rivojlanayotgan maktabda ijtimoiy-pedagogik faoliyatlarga tayyor emas. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kattagina qismi pedagogik fikrlashning barqaror stereotiplarini namoyish etadi va kasbiy o‘zini o‘zi takomillashtirishga kam e’tibor ko‘rsatadi. Pedagog olimlardan M.M.Murtozayevaning tahliliy fikriga ko‘ra o‘qituvchilar faqatgina ma’muriyat talablariga javob berishga intilishgan, shuningdek, mas’uliyatdan qo‘rqish, mustaqillikning yo‘qligi kabi konformizmga duch kelishgan [4]. Shu sababli, ba’zan o‘qituvchilar tomonidan qulay, axloqiy-psixologik muhit: o‘quvchilar har tomonlama mavjud qobiliyatlarini namoyon qilishiga imkoniyat yaratishga e’tibor beravermaydilar.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat tushunchasi – bu bolaning ijtimoiylashuvi, ijtimoiy-madaniy tajribani o‘zlashtirishi va jamiyatda o‘zini o‘zi anglashi uchun sharoit yaratishga qaratilgan kasbiy faoliyat turi demakdir [2]. U turli ta’lim muassasalarida, bolalar ta’lim-tarbiyasi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi barcha tashkilotlarda pedagoglar tomonidan amalga oshiriladi. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat har doim manzilli hisoblanadi. Yoshlarning ijtimoiylashuvi jamiyatga integratsiyalashuvi jarayonida yuzaga keladigan individual muammolar yechimini topish va ularning shaxsiyati, atrof-muhitni o‘rganishga yordam berishga qaratilgan dastur ishlab chiqiladi. Binobarin bolaning muammosi hal qilinayotgan o‘sha vaqt oralig‘i bilan cheklanishi uning lokal ekanligini anglatadi.

Yoshlarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni ijtimoiy va shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik tamoyillarga, mutaxassisning kasbiy rivojlanish qonuniyatlariga, uning manfaatlari, qadriyatlari, shaxsiy hayotini yo‘lga qo‘yish strategiyasining individual imkoniyatlariga muvofiq quriladi. Tadqiqot natijasidan kelib chiqib, bo‘lajak o‘qituvchining ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligi uchun psixologik-pedagogik sharoitlar mavjud bo‘lishi zarur. Ular: inson-jamiyat tizimidagi xilma-xil aloqalarini aniqlashtirish yo‘li orqali o‘qituvchining ongi va ijtimoiy-kasbiy mavqeida chuqur o‘zgarishlarni nazarda tutuvchi ta’lim jarayonining ijtimoiy-madaniy determinallashgan tabiati; talabalarni pedagogik hamjamiyatda o‘z o‘rnini topishni va ijtimoiy-pedagogik faoliyatning barqaror individual uslubini shakllantiradigan loyihalarda, muammoli guruhlarda, psixologik-pedagogik kengashlarda ta’limiy-tarbiyaviy muassasalarning o‘qituvchilari va xodimlari bilan o‘zaro munosabatlarini faollashtiradigan maxsus yaratilgan ijtimoiy-ta’limiy maydoni; fundamental bilimlarning ustuvorligini ta’minlash, ijtimoiy-pedagogik faoliyat qonuniyatlari va yoshlar o‘rtasida ijtimoiy tarbiyalashning zamonaviy hayot haqiqatiga mos keladigan dastlabki tajribalari haqida yaxlit g‘oyalarni o‘zlashtirishga munosabati; ijtimoiy-madaniy va kasbiy-shaxsiy rivojlanishi, mikro muhitda ular faoliyatining individual uslubi manfaatlari doirasida adaptiv-yo‘naltiruvchi, axborot-refleksiv, proektiv-rivojlantiruvchi va amaliyotni shakllantiruvchi ta’lim texnologiyalariga yo‘naltirilgan didaktik komplekslarni yaratish.

Yoshlarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatini rivojlantirishga erishishning samarali yo‘llarini ta’kidlashimiz lozim. Ular: ta’lim jarayonini, oliy ta’lim talabalariga pedagogika fanlarini o‘qitishda ijtimoiy-pedagogik faoliyatini

rivojlantirishga oid yangi pedagogik texnologiyalar va o’qitish usullarini keng joriy etish; talabalarda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni rivojlantirishga oid yangi avlod o’quv adabiyotlarini yaratish va ularni ta’lim jarayoniga keng tatbiq etish; zamonaviy o’quv, o’quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minlash; talabalarda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni rivojlantirish bo’yicha keng ko’lamli ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish.

Oliy ta’lim muassasalarida pedagoglar tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat nafaqat mazkur muassasalar uchun, balki, umumiy ijtimoiy jamiyatimiz uchun ham rivojlanish stimuli hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, bo’lajak o’qituvchilarda ijtimoiy-pedagogik faoliyat va uning shakli, metodlarini takomillashtirish, ijtimoiy jamiyat rivojining yangi shart-sharoitlarida kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish uchun resurslar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs>

2. Галагузова Ю.Н. Социальная педагогика: Курс лекций: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. М.: Гум. изд. центр ВЛАДОС, 2001.1. – С. 377.

3. Исаев И.Ф. Теория и практика формирования профессионально-педагогической культуры преподавателя высшей школы Текст. / И. Ф. Исаев. М. Белгород, 1999. – 224 с.

4. Murtozayeva M.M. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Sunrise-pro, 2024. – 450 b.